

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

MIRZAJONOV NODIR XOTAMJON O'G'LI

**«IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHIDA DAVLAT
FISKAL SIYOSATI»**

5230600 - “Moliya” - ta'lim yunalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun
yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. K. U.

Sharifxodjaeva

« ____ » _____ 2016 y.

Ilmiy rahbar: _____ k.o`q. Rajabov Sh.

TOSHKENT – 2016

MUNDARIJA

KIRISH	3
1 BOB. FISKAL SIYOSATNING MOHIYATI VA UNI AMALGA OSHIRISHNING HIQUQIY ASOSLARI.....	6
1.1 Fiskal siyosatning mohiyati va ahamiyati.....	6
1.2 Fiskal siyosatni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	11
1 bob bo'yicha xulosalar.....	18
2 BOB. MAMLUKATIMIZDA DAVLAT FISKAL SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRINI AMALDAGI XOLATINI TAHLILI.....	19
2.1 Soliq siyosatini amalga oshirish holatini tahlili.....	19
2.2 Fiskal siyosat orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish holatini tahlili.....	31
2 bob bo'yicha xulosalar.....	41
3 BOB. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT FISKAL SIYOSATINI AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI.....	42
3.1 Fiskal siyosatni amalga oshirishning xorij tajribasi.....	42
3.2 O'zbekistonda barqaror rivojlanishda fiskal siyosatni ahamiyatini oshirish masalalari	46
3 bob bo'yicha xulosa	53
XULOSA	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	57

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar moliyaviy siyosatni, jumladan fiskal siyosatni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyatini oshirmoqda. Chunki, davlat fiskal siyosati davlat byudjet siyosatini bir qismi bo'lib hisoblanadi va soliq siyosati bilan chambarchas bog'liqdir. Byudjet siyosati, aytish mumkinki, makroiqtisodiy barqarorlikni bosh omilidir. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlangan hamda moliyaviy barqarorlikka erishgan islohotlarni hozirgi davrda davlat moliyasi va ayniqsa byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlash muhim strategik vazifa hisoblanadi"¹.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni isloh etish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiyalash bo'yicha har tomonlama chuqur o'ylangan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida milliy iqtisodiyotimizning barqaror va jadal rivojlanishi, aholining turmush darajasi izchil oshib borishi uchun mustahkam hamda ishonchli poydevor yaratilganligini ta'kidlash lozim.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotganiga qaramasdan, 2015 yilda yalpi ichki mahsulot 8 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari qariyb 7 foiz, qurilish-montaj ishlari hajmi salkam 18 foizga oshdi.

Yillik byudjet yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsit bilan bajarildi. Inflyatsiya darajasi 5,6 foizni tashkil qildi, ya'ni prognoz ko'rsatkichlari doirasida bo'ldi².

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari G` - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56.

² Karimov I.A.. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir, 2016 yil yanvar (<http://www.uzreport.uz>)

Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichida ishlab chiqarishning qisqarishi, aholi turmush darajasining pasayishi, pulning qadrsizlanishi va boshqa qator ziddiyatli xususiyatlarga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz davriga to'g'ri keldi. Ma'lumki, bunday sharoitda asosiy og'irlik davlat byudjeti zimmasiga tushadi. Shu sababli fiskal siyosatni amalga oshirishda mohirlik talab qilinadi. O'sha davrlarda amalga oshirila boshlangan oqilona fiskal siyosat natijasida bugungi kunga kelib bir qator yutuqlarga erishdikki, shulardan biri mamlakatimizda byudjet ijrosini profitsit bilan ijro etilishidir. Shunga qaramasdan, bugungi kunga kelib barqaror rivojlanishda fiskal siyosatni ahamiyatini oshirish masalalari dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda davlat fiskal siyosatining ahamiyatini o'rganish va xulosalar berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- fiskal siyosatning mazmun mohiyati va ahamiyatini o'rganish;
- fiskal siyosatni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- soliq siyosatini amalga oshirish holatini tahlil qilish;
- fiskal siyosat orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish holatini tahlil qilish;
- fiskal siyosatni amalga oshirishning xorij tajribasini o'rganish;
- O'zbekistonda barqaror rivojlanishda fiskal siyosatni ahamiyatini oshirish yo'nalishlarini ko'rib chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti sifatida fiskal siyosatni amalga oshirish jarayonida, ya'ni davlat byudjet daromadlarini shakllantirish jarayonida hamda xarajatlardan samarali foydalanishda jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlar maydonga chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi hamda davlat byudjetining faoliyati belgilab olindi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda davlat fiskal siyosatini ahamiyatini oshirish masalalarini o`rganish natijasida tadqiqot yuzasidan erishilgan yutuqlardan talabalar kelgusi ishlarida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, 5 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

1 BOB. FISKAL SIYOSATNING MOHIYATI VA UNI AMALGA OSHIRISHNING HIQUQIY ASOSLARI

1. Fiskal siyosatning mazmun mohiyati va ahamiyati

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashga oid tub islohotlarning o'tkazilishi davlatning iqtisodiy siyosatining samarali ijrosini ta'minlashni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, islohotlar strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining keng qamrovli dastaklarini o'z ichiga oladi. Mana shunday eng muhim dastaklardan biri davlatning izchilolib borilayotgan moliyaviy siyosatidir. Moliyaviy siyosat qo'yilgan maqsadlarini hayotga tatbiq etish uchun, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda asosiy o'rinni egallaydi. Moliyaviy siyosat haqida so'z yuritish ekanmiz, uning nihoyatda ko'p qirrali va murakkab kategoriya ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Hozirgi kunga qadar moliyaviy siyosat tushunchasi borasida yagona fikr mavjud emas. Masalan, G'arb iqtisodchilari Stenli Fisher, Rudiger Dornbush va Richard Shmalenzilar moliyaviy siyosat tushunchasiga fiskal siyosat tushunchasi orqali yondashadilar. «Fiskal siyosat esa davlatning o'z daromadlari va xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilishi bo'lib hisoblanadi», — deb ta'kidlashadi³.


J.M.Keynsning izdoshlari AQSHdan – A.Xansen, S.Xarris; Buyuk Britaniyadan – R.Xarrod, A.Ilersik, A.Pikok; Frantsiyadan – F.Perru; Germaniyadan – F.Neymark va boshqalar fiskal antitsiklik nazariyaning yaratilishini nihoyasiga yetkazdilar. Bu nazariyaning mohiyati balanslashtirilgan iqtisodiy taraqqiyot maqsadlari uchun davlat daromadlari va xarajatlaridagi o'zgarishlarga borib taqaladi.

Neokeynschilar samarali talabga erishishning usuli sifatida “defitsitli moliyalashtirish” g'oyasini himoya qildilar. Ular davlat qarzlarning o'sishini inobatga olmagan holda davlat katta xarajatlarning zarurligini isbotlab berdilar. Biroq xronik xarakter kasb etgan katta miqdordagi byudjet defitsitlari iqtisodchilarning ma'lum bir guruhini, shu jumladan Stokgolm maktabi vakillarini,

³ Фишер С., Дорнбуш Р., Шмалензи Р. Экономика. — М.: Финансы и статистика, 1993.

jumladan, E.Lindal , G.Myurdallar byudjetga oid muammoni yangicha hal etishga majbur etdi. Bu maktab vakillari “byudjetni siklik balanslashtirish”, ya`ni byudjet daromadlari va xarajatlarini iqtisodiy siklga moslashtirish nazariyasini taklif etdilar. Bu nazariyaga muvofiq iqtisodiy tanazzul paytida vujudga kelgan byudjet defitsitini davlat iqtisodiy o`lishi davridagi ortiqchalar hisobidan qoplashi kerak. Ana shu tavsiyanomalarga rioya etgan holda bir necha kapitalistik mamlakatlarning hukumatlari siklik tartibga solishning maxsus pul fondlarini yaratdilar.

Amerikalik mashhur olimlar K.R.Makkonnell va S.L.Bryular taklifga yo`naltirilgan fiskal siyosatni qo`llab-quvvatlaydilar. Fiskal siyosat esa jami talabga va soliqlarni o`zgartirish orqali esa taklifga ham ta`sir ko`rsatadi. Byudjetdan transfert to`lovlari va soliq tizimi, bu olimlar fikricha, turli iqtisodiy vaziyatlarda talab qilingan muvozanatni ta`minlashi mumkin.



1-rasm. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari⁴

⁴ Vahobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalari, o`quv qo`llanma, "Iqtisod-moliya", 2007y.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari hisoblanadigan soliq va byudjet siyosatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Soliq siyosati moliyaviy siyosatning eng muhim qismi hisoblanadi. Besh yuz yildan ortiqroq vaqt mobaynida zamonaviy moliya fani soliqlarga nisbatan munosabatini aniq belgilash imkoniga ega bo'lgan. Bu munosabatlar quyidagilardan tashkil topadi⁵:

- soliqlarsiz davlatning faoliyat ko'satishi mumkin emas;
- solikli undirish qat'iy o'sish tendentsiyasiga ega;
- oqilona soliq ostonasidan o'tilganidan so'ng tabiiy takror ishlab chiqarish jarayoni buziladi – iqtisodiyotning o'z-o'zidan yemirilishisodir bo'ladi;
- tanazzul davrida soliqlar mumkin qadar minimal darajada o'rnatilmog'i lozim. Buning natijasida mamlakatning iqtisodiy mexanizmi ichki investitsion salohiyatni safarbar etish hisobidan tiklanadi;
- soliqning yuqori ostonasi kapitalning chetga chiqib ketishiga olib keladi;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish kerak, albatta. Biroq, summar o'lchovlarda sof daromadning 30%dan ortiq qismining undirilishida mamlakatning iqtisodiy o'sishi to'xtaydi;
- soliq imtiyozlari ochiqlik xarakteriga ega bo'lishi va barcha takror ishlab chiqarish sub'ektlari uchun teng bo'lishi kerak;
- soliq tizimi konfiskatsion xarakterga ega bo'lmasligi lozim. Faqat, jumladan, individual daromadlarning o'sishida ifodalangan milliy boylikning o'sishi soliqqa tortiladigan bazaning (asosning) barqaror o'sishini ta'minlashi mumkin;
- qonunlar va qoidalarning barqarorligini davlat kafolatlagan iqtisodiy tizimda soliqlarning summar o'lchovi barqaror o'sish tendentsiyasiga ega bo'ladi. Barqarorlik kafolati sifatida davlat o'zining majburiyatlarini buzishni

⁵ Vahobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalari, o'quv qo'llanma, "Iqtisod-moliya", 2007y.

boshladimi, kapital xufyona iqtisodiyotga yoki xorijga o'tishni boshlab, byudjetning daromadlar bazasini (asosini) qisqartiraveradi;

- soliq tizimi oddiy, ochiq va samarali bo'lmog'i lozim. Soliqlar sonini, soliqqa tortish ob'ektlarini ko'paytirish, ko'p bosqichli soliqlarni joriy etish soliqlarni undirish bo'yicha xarajatlarning ortishiga, boqimanda va jarimalarning o'sishiga va pirovardida, mulkni qamoqqa olish, soliq to'lovchini kasod deb e'lon qilish va h.k. yo'llar orqali iqtisodiyotning yemirilishiga olib keladi;

- soliqqa tortish bilvosita tizimining ustuvorligi byudjet daromadlarini shakllantirish nuqtai-nazaridan qulay hisoblanadi. Lekin bu narsa, oxir oqibatda, mamlakat aholisi asosiy qismining qashshoqlanishiga olib keladi. Chunki bunday soliqlarning yuki tovarlar va xizmatlarning yakuniy iste'molchisi zimmasiga, ya'ni yashash minimumi darajasida yoki sotsial tirikchilik darajasida daromadga ega bo'lgan aholining 80-90% qismiga yuklanadi. Bu paradoks daromadlarning turli darajalarida iste'molning nisbatan bir xil darajasiga asoslangan;

- bilvositasoliqlar tizimining xavfliligi shundaki, bu tizimda aholining asosiy qismidan jamg'armalar olib qo'yiladi va bu, o'z navbatida, kredit tizimi va ikkilamchi moliyaviy bozor tizimining asoslarini buzadi. Bilvosita soliqlardan voz kechgan AQSH tajribasi bunga yaqqol tasdiqdir;

- bilvosita soliqlarni sog'liq uchun zararli bo'lgan tovarlar, zebu-ziynat buyumlari, ayrim hollarda import qilinadigan tovarlar va xizmatlar va boshqa bir qancha o'ziga xos bo'lgan maxsus holatlarga nisbatan joriy etish zarur;

- daromad va mol-mulkdan olinadigan soliqlar soliq bazasining asosiysi bo'lib hisoblanishi kerak. Ularni proportsional soliqqa tortish printsiplariga asosan qurmoq lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxsiy tashabbussiz va jamiyat barcha a'zolarining samarali mehnatisiz iqtisodiyotni tiklash murakkabligicha qolaveradi. Soliqlar bozor iqtisodiyotida mehnatning asosiy rag'batlantirilishini olib qo'yadi, ya'ni mehnat daromad keltirishi lozim. Mamlakat iqtisodiyotiga soliq siyosatining ta'siri bevosita namoyon bo'ladi – yuqori soliq ostonasi takror ishlab chiqarish

jarayonining investitsion imkoniyatlarini qisqartiradi, jamiyatda iste'mol darajasi pasayadi va bu narsa, o'z navbatida, ishlab chiqarish va xizmat sektorlarining o'sish bazalarining pasayishiga olib keladi.

Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi sifatida davlatning byudjet siyosati, eng avvalo, har bir mamlakatning Konstitutsiyasi va byudjet jarayonida hamda qonun ijodkorligida alohida hokimiyat organlarining funktsiyalarini belgilovchi boshqa qonunlar majmuiga muvofiq aniqlanadi. O'zining hajmi va muhimligi jihatidan eng katta ish bo'lishiga qaramasdan byudjet siyosatini faqat byudjet jarayoniga tegishli deb hisoblash maqsadga muvofiq emas. Qonun byudjet jarayonida hokimiyatning qonunchilik va ijroiya organlari funktsiyalarini, mamlakat sub'ektlari funktsiyalarini, byudjet federalizmi printsiplarini, byudjet jarayoni sub'ektlarining huquq va majburiyatlarini aniq belgilashi kerak. Biroq byudjet siyosati shu bilan cheklanmaydi. Byudjet siyosati byudjetda to'planadigan YaIM hissasini aniqlashda, mamlakat yuqori va quyi organlarining o'zaro munosabatlarida, byudjet xarajatlar qismining tarkibiy tuzilishida, turli darajadagi byudjetlar o'rtasida xarajatlarni taqsimlashda, davlat qarzini boshqarishda, byudjet defitsitini qoplash yo'llarini aniqlashda va boshqalarda ifodalanadi.

Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga fiskal siyosat orqali erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, byudjet-soliq siyosati deb ham aytiladi. Byudjet-soliq siyosati deganda noinflyatsion YaIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'liq bandlilikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi⁶.

Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. Iqtisodiyotda to'liq bandlik va ortiqcha talab natijasida inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat- fiskal restriksiya olib

⁶X.S.Xadjaev, I.A.Bakiyeva, Sh.Sh. Fayziev. Makroiqtisodiyot (O'quv qo'llanma) - T.: TMI, 2014, 268 bet.

boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarni (G) kamaytirish yoki soliqlarni (T) oshirish yoki bo'lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o'sishini chegaralashdan iborat. Ushbu farq fiskal siyosat vositalarini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Agar hukumat davlat sektorini kengaytirmoqchi bo'lsa, davriy pasayishni tugatish uchun o'z xarajatlarini oshirishi, inflyatsiyani cheklash uchun esa soliqlarni oshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi..

1.2. Fiskal siyosatni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Iqtisodchilar M.Sharifxo'jaev va A.O'lmasovlar fikricha fiskal siyosat bu davlat byudjetini to'ldirish maqsadida o'tkaziladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Byudjet kodeksida keltirilishicha byudjet tizimi bir necha prinsiplarga asoslanadi va ulardan biri byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish prinsipi bo'lib, bunda byudjet tizimi byudjetlarini tuzishda byudjet tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo'yicha prognoz qilinadi, xarajatlar esa yo'nalishlar bo'yicha rejalashtiriladi⁷

Byudjet daromadlarini rejalashtirish byudjet tasnifiga muvofiq amalga oshiriladi. Byudjet Kodeksining 3 bobida Byudjet tasnifiga quyidagicha ta'riy berilgan: "Byudjet tasnifi byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhlashdan iborat bo'lib, byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniladi".

Byudjet tasnifini xalqaro andozalarga mos kelishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65-son buyrug'i bilan "Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma" ishlab chiqildi⁸.

⁷O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 7- modda, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 52- modda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son

⁸O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 20 avgustdagi 65-son buyrug'iga ilova, Byudjet tasnifini qo'llash bo'yichayo'riqnoma, 02.2015 y. 2146-4-son bilan o'zgartirish kiritilgan

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi daromatlarni ularning turlari va manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi.

Byudjet tasnifi o'z ichiga quyidagilarni oladi (RASM):

- byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifini;
- byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarining tasnifini;
- davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalari tasnifini.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda byudjet kodeksining ahamiyati katta bo'lib, uning 9 bobi "Davlat byudjeti daromatlari" deb nomlanadi. Unga ko'ra davlat byudjeti daromatlari:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Byudjet kodeksining 51 va 52 moddalarida respublika byudjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlarikeltirilgan(1- jadval).

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromatlari hisoblanadi.

Qonunchilikka muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun

aksiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o'tkazib beriladi.

1-jadval

Respublika byudjeti va Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari tarkibi⁹

Respublika byudjeti daromadlari	Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromadlari
1) umumdavlat soliqlari, shu jumladan: ✓ yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i; ✓ yagona soliq to'lovi; ✓ jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; ✓ qo'shilgan qiymat solig'i; ✓ aksiz solig'i; ✓ yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq; 2) bojxona bojlari; 3) qo'shimcha foyda solig'i; 4) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi; 5) boshqa daromadlar.	1) belgilangan normativlarga muvofiq umumdavlat soliqlari, shu jumladan: ✓ yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i; ✓ yagona soliq to'lovi; ✓ jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i; ✓ tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq; ✓ qo'shilgan qiymat solig'i; ✓ aksiz solig'i; ✓ yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq; ✓ suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 2) mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shu jumladan: ✓ obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i; ✓ transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq; ✓ mol-mulk solig'i; ✓ yer solig'i; ✓ yagonayer solig'i; ✓ ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im; 3) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 4) bozorlardan tushadigan daromadlar; 5) boshqa daromadlar

⁹O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 51-52- moddalar, O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 52- modda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son

Respublika byudjetining boshqa daromadlariga imzoli bonus va tijoratbop topilma bonusi to'lanishidan tushgan tushumlar, qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetiga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlari va jarima sanksiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni to'lash hisobidan to'lovlar, aktsiyalarning davlat ulushi (payi) bo'yicha dividendlar (daromadlar), mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi¹⁰.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining boshqa daromadlariga davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi¹¹.

Mamlakatimizda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga

¹⁰O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 51- modda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 52- modda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son


va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi orqali tartibga solinadi. Soliq kodeksi dastlab 1997 yilda qabul qiligan bo'lib, yillar mobaynida soliq tizimining takomillashuvi natijasida bir qator o'zgartirishlar kiritib borilgan va natijada 2007 yilga kelib yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilindi va 2008 yil 1 yanvarda amaliyotga tabiiq etila boshladi.

Bugungi kunda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ushbu Kodeks bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 34-moddasiga asosan Davlat byudjeti quyidagi darajadagi byudjetlardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti;

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari (2- rasm).



2-rasm.O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tuzilmasi¹²

¹² O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 33-35 modddalarga asosan tayyorlandi

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan subvensiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining daromatlari hisoblanadi.

Qonunchilikka muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'i uchun aksiz solig'i Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari daromadlariga o'tkazib beriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti tuzilmasiga Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi¹³.

Viloyatlar mahalliy byudjetlari tuzilmasiga viloyat byudjeti, tegishli viloyatlar tumanlari va shaharlarining byudjetlari kiradi.

Toshkent shahar mahalliy byudjeti tuzilmasiga shahar byudjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning byudjetlari kiradi.

Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi jarayonida byudjetdan ajratiladigan mablag'lar:

1) quyidagilar munosabati bilan foydalanilmay qolgan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning:

byudjet tashkilotlarining tarmog'i, shtatlari va kontingentlari bo'yicha reja bajarilmaganligi;

byudjet tashkilotlarining tasdiqlangan shtat jadvalida nazarda tutilgan shtat birliklari to'ldirilmaganligi;

kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar moliya yili yakuni bo'yicha to'liq o'zlashtirilmaganligi;

¹³O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 35- modda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son

byudjet tashkiloti va byudjet mablag'lari oluvchilar faoliyati to'xtatib turilganligi — to'xtatib turilgan davr uchun;

2) byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning tasdiqlangan xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan, davlat moliyaviy nazorati bo'yicha tadbirlar davomida aniqlangan ortiqcha va qonunga xilof ravishda byudjetdan ajratilgan mablag'larning summalariga;

3) qonun hujjatlari qabul qilinishi munosabati bilan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar miqdorlarining qisqartirilishi summalariga;

4) moliya yili boshiga tovar-moddiy qimmatliklarning normativdan ortiq zaxiralarining summalariga;

5) dotatsiyalar va subsidiyalarni to'lash uchun mo'ljallanib, ammo zarurati qolmagan summalariga kamaytiriladi.

Byudjetdan ajratiladigan mablag'larni kamaytirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot byudjet tasnifiga muvofiq muayyan davr uchun Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining ijrosi natijalaridan iborat bo'ladi¹⁴.

Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi hisobot quyidagi hisobot shakllarini o'z ichiga oladi:

- Davlat byudjeti ijrosining balansini;
- Davlat byudjeti daromadlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni;
- Davlat byudjeti xarajatlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni;
- Byudjet tashkilotlarining debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnomani;
- Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha tarmoq, shtatlar va kontingentga doir rejaning bajarilishi to'g'risidagi hisobotni.

¹⁴O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 165- modda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son

1 bob bo'yicha xulosa

Fiskal siyosatni amalga oshirish natijasida daromad va xarajatlarni mutanosibligini ta'minlashga erishilish ko'zda tutilgan ekan, shuni masalani to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida byudjetni daromadlarini to'g'ri rejalashtirish maqsad qilib qo'yilgan. Shu munosabat bilan qabul qilingan Byudjet Kodeksida davlat byudjeti daromadlari umumiy tarza berilgan bo'lsada, Respublika va mahalliy byudjet daromadlari, jumladan viloyat, shahar va tuman byudjet daromadlari ham alohida alohida, manbalari ko'rsatilgan holda berilgan. Avvalgi "Byudjet tizimi to'g'risidagi qonun"¹⁵ esa daromadlar umumiy qilib berilgan edi. Xuddi shunday byudjet xarajatlari ham ushbu kodeksda har bir byudjet bo'yicha alohida keltirilgan.

Soliq solish soliq majburiyatlari yuzaga kelgan paytda amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bekor qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini kamaytirish, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bekor qilishni yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda yengillashtirishni nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi mumkin, agar bu soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan bo'lsa.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari o'zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, agar ularda kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, ular rasmiy e'lon qilingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritiladi.

¹⁵O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuni, 2013 yil dekabrda o'z kuchini yo'qotgan.

2 BOB. MAMLAKATIMIZDA DAVLAT FISKAL SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHNI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHGA TA`SIRINI AMALDAGI XOLATINI TAHLILI

2.1. Soliq siyosatini amalga oshirish holatini tahlili

O`zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni soliq tizimini ham muntazam takomillashtirib borishni taqozo qiladi. Soliq siyosati moliya tizimi islohotlarining muhim yo`nalishi sifatida iqtisodiyotni tartibga solish hamda uning barkarorligini ta`minlash jarayonida har qachongidan ham muximroq bo`lib bormoqda.

Davlat byudjeti daromadlarining byudjetga tushishining uzluksizligi ta`minlansa, iqtisodiyotning turli tarmoqlari rivojlanishi uchun yetarli darajada xarajatlar qilish imkoniyati mavjud bo`ladi va aholi turmush farovonligi yaxshilanadi. Davlat byudjetining xarajatlar qismini optimallashtirish, ortiqcha xarajatlarga yo`l qo`ymaslik, ijtimoiy zaruriy sohalarni rivojlantirish istiqbollarini ko`zlagan holda xarajatlarni maqsadli yo`naltirish va bu qilinayotgan xarajatlarni kelgusidagi samaradorlik ko`rsatkichlarini e`tiborga olish bugungi kundadagi fiskal siyosatni asosiy vazifasi hisoblanadi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan shu kungacha bo`lgan davrda soliq tizimidagi soliqlar va yig`imlar turlarining kamayib borishiga qaramasdan (1-jadval) davlat byudjeti daromadlari tarkibida muhim salmoqni egallovchi soliqlarning miqdori o`sib borayotganligini kuzatish mumkin.

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan qat`iy soliq;
- qo`shilgan qiymat solig`i;
- aktsiz solig`i;
- yer qa`ridan foydalanganlik uchun soliq;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- ustama foydadan soliq.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimidagi soliq va yig'imlar turlarining kamayib borishi to'g'risida ma'lumot¹⁶

Yillar	Soliq va yig'imlar turlari soni
1992	24
1994	24
1995	22
1996	21
1998	20
1999	18
2000	17
2001	16
2002	15
2003	14
2004	14
2005	13
2006-2016	11

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida quyidagi soliqlar amal qiladi:

Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi dalat byudjeti tarkibidan o'rin olgan kichik korxona va mikrofirmalar uchun hamda savdo va umumovqatlanish korxonalardan yagona soliq to'lovi ushbu korxonalar uchun "yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i"ni o'rniga joriy qilingan. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatidan to'lanadigan qat'iy soliqni ham daromad solig'iga kiritish mumkin. Yuqorida qayd etilgan soliqlar soddalashtirilgan soliqlar sifatida imtiyozli soliqlar hisoblanadi.

Byudjet daromadlarini shakllantirishda davlat tomonidan yuritilayotgan soliq siyosatiga, shu jumladan daromadlarni rejalashtirishga qo'yiladigan talab har doim ham dolzarb bo'lib kelgan. Bunda aniqlik, ehtiyotkorlik va ma'qul yo'lni tanlash kabi vazifalar muhim o'rin tutadi. Chunki daromadlarni rejalashtirish, soliq siyosatidagi o'zgarishlardan kutilayotgan natijalarni to'g'ri baholay bilmaslik bir tomondan, katta miqdordagi davlat mablag'lari yo'qotilishiga yoki xatolarni tuzatish uchun ketadigan uzoq vaqt sarflanishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan esa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan soliq yukining oshib ketishi, ularni ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun yo'naltirishi mumkin bo'lgan mablag'larini olib qo'yishga sabab bo'lishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, byudjet daromadlarini rejalashtirishni iqtisodiy holatini chuqur o'rgangan, ko'zda tutilayotgan soliq siyosatining natijalarini to'g'ri baholash juda muximdir.

Iqtisodchi olimlar davlat soliq siyosatini uch turga bo'ladilar:

Birinchi turdagi – maksimal soliq undiruvchilar siyosati, ular "mumkin bo'lgan barchasini ol" printsipiga asoslanganlar. Bunday holatda davlat uchun "soliq qopqoni" o'rnatilgan, ya'ni soliqlarni ko'tarish bilan davlat daromadlari baribir ortmaydi.

Ikkinchi turdagi – aqlli soliqlar siyosatida soliq stavkalarini pasaytirish yoki soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilib, soliq bazalari yoki soliq to'lovchilar ko'paytiriladi. Bunday siyosatdan yaxshi soliq iqlimi ta'minlanadi va natijada tadbirkorlikning rivojlanishiga olib keladi.

Uchinchi turdagi – shunday soliq siyosati bo`lib, unda soliq undirish darajasi yuqori bo`lish bilan birga ijtimoiy himoya xam yuqori bo`ladi.

Iqtisodi rivojlangan davlatlarda yuqorida keltirilgan soliq siyosatlaridan bir vaqtning o`zida bir nechitasi qo`llanishi mumkin. O`zbekiston uchun esa hozirgi vaqtda ikkinchi va uchinchi turdagi soliq siyosatlari qo`llanilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda soliq siyosatiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shu o`rinda to`g`ri soliqlarning stavkalarini yildan yilga pasayib borayotganligini alohida qayd etish lozim. Lekin shunga qaramasdan, to`g`ri soliqlarni miqdor jihatdan oshib borishini soliq stavkasining pasayishi hisobiga soliqqa tortish bazasining kengayib borishi bilan izohlash mumkin(2- jadval).

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli Farmoniga asosan barcha soliqlari va to`lovlari o`rniga yalpi tushumdan 13 foizli yagona soliq stavkasi o`rnatildi. Buning natijasida ular uchun amaldagi soliq yuki 15,2 foizdan 13 foizga tushdi.

Bugungi kunda kichik biznes subyektlarining soliq stavkasi faoliyat turi bilan bog`liq ravishda belgilanadi. Sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar uchun soliq stavkasi 2005 yildagi 13 foizdan 2012 yilga kelib 5 foizga tushdi va oxirgi uch yilda o`zgarishsiz qolgan.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig`i 2010 2013 yillarda 9 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2015 yilda o`tgan yildagi 8 foiz o`rniga 7,5 foiz qilib belgilandi.

O`zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko`ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig`i stavkalari quyidagi guruhlariga bo`linadi:

- jismoniy shaxslarning ish haqi, mukofotlar va boshqa daromadlariga solinadigan tabaqalashgan progressiv soliq stavkalari;
- jismoniy shaxslarning dividend va foiz tariqasida oladigan daromadiga soliq stavkasi (10%);
- norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to`lov manbaida solinadigan soliq stavkalari (faoliyat va daromad manbaiga qarab tegishlicha 6%; 10%; 10%; 20%);

➤ imtiyozli soliq stavkalari¹⁷.

2-jadval

2010-2015 yillarda O'zbekistonda ayrim soliq turlari bo'yicha stavkalarining o'zgarishi to'g'risida ma'lumot¹⁸

Soliqlar turi	2010y	2011y	2012y	2013 yil	2014 yil	2015 yil
Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i,	9	9	9	9	8	7,5
Mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi (sanoat sohasi uchun)	7	6	5	5	5	5
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i,	11, 17, 22	10, 16, 22	9,16, 22	8, 16, 22	7,5; 16, 22	0; 8,5; 17, 23

1998-1999 yillarda jismoniy shaxslar daromadlaridan soliq besh pog'onali 15%, 25%, 35%, 40% va 45% shkala bo'yicha olingan bo'lsa, 2001-2014 yillardan boshlab uchta pog'onali shkala bo'yicha undirilgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i borasida 2015 yilda yangiliklar kiritildi desak xato bo'lmaydi, sababi 1 minimal ish haqidan 0 foiz miqorida , 1 minimal ish haqidan 5 minimal ish haqigacha bo'lgan summadan o'tgan yildagi 7,5 foiz o'rniga 8,5 foiz, 5 minimal ish haqidan 10 minimal ish haqigacha bo'lgan summadan 16 foiz o'rniga 17 foiz, 10 minimal ish haqidan ortgan qismidan esa 22 foiz o'rniga 23 foiz soliq stavkasi belgilandi (3-jadval).

¹⁷Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T.: Sharq, 2009. 236-b.

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, PQ № 1449, 1675, 1887, 2099,2270

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi o'tgan 2014 yilga nisbatan 2015 yilda 200 kv.m hajmdagi uy-joylar uchun 0,1 foizga ortib 1,3 foizni, shahar joylarda 200 kv.m dan 500 kv.m gacha hajmdagi uy-joylar uchun 0,2 foizga ortib 1,6 foizni va 500 kv.m hajmdan ortiq uy-joylar uchun 0,4 foizga ortib 2,2 foizni tashkil etmoqda.

Yuridik shaxslar mol mulkiga solinadigan soliq stavkasi esa uzoq yillar mobaynida 4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 4 foiz qilib belgilandi

3-jadval

Yuridik va jismoniy shaxslar mol mulki solig'i stavkasi¹⁹, %

Soliqlar turi	2012y	2013 yil	2014 yil	2015 yil
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, soliqqa tortiladigan obyekt qiymatidan	3,5	3,5	4	4
Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, soliqqa tortiladigan obyekt qismatidan, 200 kv m gacha	0,9	1,04	1,2	1,3
• Shaharlarda joylashagan uy va kvartiralar uchun 200 500 kv mgacha	1,1	1,25	1,4	1,6
• Shaharlarda joylashagan uy va kvartiralar uchun 500 kv m dan oshgada	1,35	1,55	1,8	2,2

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, PQ № 1449, 1675, 1887, 2099,2270

Resurs soliqlari va mol-mulk soliqlarida soliq yukining ortib borishi soliqlarni real qiymatlardan undirishga e'tibor birilayotganini bildiradi, ya'ni iqtisodiy faoliyat natijasidan qat'iy nazar soliq undirish imkonini beradi. Rivojlangan davlatlarda esa, iste'mol rag'batlantiriladi, chunki u yerda raqobat kuchli va mijozlar uchun kurash boradi, shuning uchun ham egri soliqlar bunchalik yuqori salmoqqa ega emas. Iqtisodiyot rivojlanib borishi bilan O'zbekistonda ham egri soliqlar salmog'i pasayib boradi.

Quyidagi jadvalda davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi soliqlarning o'zgarishlari aks etgan (4-jadval).

Shu o'rda ushbu soliqlarning buydjet daromadlari tarkibida tutgan o'rnini tahlil qilish lozim. Solikli daromadlar jami daromadlar tarkibida 2014-2015 yillarda 93,9 foizni tashkil etmoqda. Shundan bevosita soliqlarning ulushi 2015 yilda o'tgan yillarga nisbatan biroz kamaygan va 23,6 foizni, jumladan, yuridik shaxslardan foyda solig'i 3,5 foizni, jismoniy shaxslardan daromad solig'i 10,1 foizni, obodanlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i 2 foizni tashkil etgan. Bilvosita soliqlarning ulushi esa o'tgan yilga nisbatan 1 foizga ko'paygan, jumladan, aksiz solig'i 15,2 foizni, bojxona boji 4,4 foizni va transport vositalari uchun yoqilg'i iste'moli solig'i 3,5 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari 0,9 foizga ortib, shundan mol-mulk solig'i 2015 yilda 4,7 foizni, yer solig'i 2,5 foizni, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq esa 0,5 foizni tashkil etmoqda.

Umuman olganda, soliq tushumlari muhim makroiqtisodiy va mikroiqgisodiy jarayonlar ko'lamini va ulardagi rivojlanish sur'atlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan, moliyaviy oqimlarni boshqarishda davlatning muhim instrumenti xisoblandigan davlat byudjetini mablag' bilan ta'minlaydi. Mavjud makroiqtisodiy va mikroiktisodiy sharoitlar esa moliya -soliq siyosatining ham imkoniyatlari va chegaralarini belgilab beradi.

4-jadval

**2011-2015 yillarda Davlat byudjeti daromadlari to'g'risida ma'lumot²⁰,
jamiga nisbatan %da**

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
	Davlat byudjeti daromadlari, jami	100	100	100	100	100
1.	<i>Bevosita soliqlar</i>	26,2	25,2	26,2	25,8	23,6
1.1.	Yuridik shaxslardan foyda solig'i	5,1	4,4	4,9	4,3	3,5
1.2.	Savdo va umumiyqatlanish korxonalari yalpi daromadidan soliq	3,3	3,4	3,3	3,3	3,2
1.3.	Kichik korxona va mikrofirmalardan yagona soliq to'lovi	2,3	2,6	3,0	3,0	3,0
1.4.	Jismoniy shaxslardan daromad solig'i	11,1	11,5	11,0	11,0	10,1
1.5.	Tadbirkorlik faoliyatidan qat'iy soliq	1,1	1,1	1,4	1,7	1,7
1.6	Obodanlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	2,3	2,2	2,6	2,5	2,0
2	<i>Bilvosita soliqlar</i>	53,5	54,3	51,0	51,8	52,8
2.1	QQS	32,3	32,9	30,1	30,2	29,7
2.2	Aksiz solig'i	15,3	15,1	14,8	15,0	15,2
2.3.	Bojxona boji	3,2	3,6	3,9	3,8	4,4
2.4	Transport vositalari uchun yoqilg'i iste'moli solig'i	2,6	2,7	2,3	2,8	3,5
3	<i>Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari</i>	14,3	13,3	15,0	15,0	15,9
3.1	Mol-mulk solig'i	3,0	3,1	3,3	3,8	4,7
3.2	Yer solig'i	2,1	2,2	2,6	2,2	2,5
3.3	Yer qat'idan foydalanganlik uchun soliq	8,2	7,7	8,7	8,6	8,2
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik solig'i	0,4	0,4	0,4	0,4	0,5
4	<i>Ustama foydadan soliq</i>	0,9	1,2	1,3	1,3	1,5
5	<i>Boshqa daromadlar</i>	5,1	6,0	5,6	6,1	6,1

Soliqsiyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri soliq yukini pasaytirish orqali mamlakatdagi tadbirkorlik va tijorat faoliyatini jadallashtirishdan iborat.

²⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, PQ № 1449, 1675, 1887, 2099, 2270

Soliq yuki foydaga yoki jami daromadga nisbatan olinadi. Mamlakat miqyosda hamma to'langan soliqlar va maqsadli jamgarmalarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i xam soliq yukini ifodalaydi deyiladi. Ammo soliq yuki aniq to'lovchining daromadiga nisbatan jami to'langan soliqlari va to'lovlari salmog'idir.

Soliq yukini pasaytirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibi:

- Belgilangan soliq stavkalarini pasaytirish;
- Soliqqa tortish bazasini qisqartirish;
- Soliq to'lovchi sub'ektlar sonini ko'paytirish;

Davlat ixtiyorida bo'lgan ayrim byudjet xarajatlarni joylarga berish.

Agar soliq to'lovchi soliqlarni to'g'ri to'lagan bo'lsa, unga soliq og'irligi mos keladi. Lekin ba zi korxonalarda egri soliqlar bo'lib, uning xuquqiy to'lovchilari korxona hisoblansada, soliq yuki iste molchi, ya ni aholi zimmasiga tushadi. Oxirgi iste mol qiluvchilar aholi hisoblanadi. Bu egri soliqlar hisobiga aholining real daromadlari biroz bo'lsada, pasayish hollari uchraydi.

“Iqtisodiyotning barqaror va mutanosib sur'atlarda o'sishi hamda tarkibiy o'zgarishlar va modernizatsiyalashni ta'minlash, uning eng muhim tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, soliq siyosatini yanada erkinlashtirishdan iboratdir”²¹.

Respublikamizda izchil soliq-byudjet siyosatining amalga oshirilishi, soliq yukini kamaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi soliq to'lovchilarda ishlab chiqarishni kengaytirishga sharoit yaratilishi, ishlab topilgan va ularning o'zlarida qoldirilayotgan mablag'larning reinvestitsiya qilinishi oqibatida qo'shimcha soliq ob'ektning paydo bo'lishi hisobiga nafaqat byudjetdagi yo'qotishlar o'rnining qoplanishi, balki soliq to'lovchilarning qo'shimcha daromadlarga ega bo'lib, ishlab chiqarish imkoniyatining oshishiga olib keladi.

Soliq yuki nima? degan savolga javob beradigan bo'lsak, soliq yuki – soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning hamma soliqlar va maqsadli ajratmalar


²¹ Каримов И.А. Янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш – асосий вазифамиздир. // Халқ сўзи, 2007 йил 13 февраль.

yig'indisini byudjetga to'lashidir. O'zbekistonda soliq yukini YaIMga nisbatan o'zgarishi 3-rasmda keltirilgan.

O'zbekistonda soliq yuki bundan o'n yil oldin YAImga nisbatan (maqsadli jamg'armalarni hisobga olmagan holda) 27,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda esa 6,3 punktga kamaydi va YAImga nisbatan 21,6 foizni tashkil yetdi. 2013 yilda esa soliq yukining umumiy darajasini yana 0,3 punktga kamaytirish, ya'ni 21,3 foizga tushirish chora-tadbirlari ishlab chiqilganligi sababli, bu ko'rsatkich amalda YAImga nisbatan 20,5%ni, 2014-2015 yillarda esa 20% tashkil etdi.

3-rasm

Iqtisodiyotda soliq yuki²², YaImga nisbatan %da



Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlaridan yana biri soliq imtiyozlari hisoblanadi. Mamalakamizda olib borilayotgan soliq siyosatida soliq imtiyozlarini berish asosan investitsion faollikni rag'batlantirishga, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta modernizatsiya qilish hisobiga korxonalar moliyaviy holatini faollashtirish, pirovar barqarorlashtirish hamda mamlakatimiz eksport salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan.

²² O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari

“Barkamol avlod yili” davlat dasturiga binoan 2010 yil 28 iyulda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta`lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-4232-sonli farmoniga asosan Mikrofirmalar va kichik korxonalar ta`lim muassasalari bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalarini tuzganda, band bo`lgan xodimlarning o`rtacha yillik soni qonunchilikda belgilangan cheklangan me`yordan 20 foizgacha oshirish huquqi berilgan edi.

Hozirgi kunda soliq tizimida tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi rezident jismoniy shaxslar uchun faoliyat turiga (yakka tartibdagi tadbirkorlar), shuningdek, faoliyatning mazkur turlarini tavsiflovchi fizik ko`rsatkichlarga qarab (tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug`ullanuvchilar) har oyda qat`iy belgilangan soliq turini to`lash belgilangan.

2014 yilda yuridik shaxsni tashkil etmay tadbirkorlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar)dan olinadigan qat`iy belgilangan soliq stavkalaridagi asosiy o`zgarish, boshqa aholi punktlarida gazeta, jurnal va kitob mahsulotlari bilan chakana savdo qiluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 2013 yildagi qat`iy belgilangan soliq stavkasi EKIHNing 2 barobaridan 0,5 baravariga pasaytirildi.

Shuningdek, 2012 yilning 2 choragidan boshlab qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi asosida barpo etilayotgan massivlarda korxona xizmatlarini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar 5 yil muddatga qat`iy belgilangan soliq to`lashdan ozod etildi²³.

Shuningdek, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun qulay shart-sharoit yaratish, sohaning huquqiy himoyasini ta`minlash va munosib rag`batlantirishda soliq siyosati muhim ahamiyat kasb etib, bu borada qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2014 yil 7 apreldagi “O`zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PF-4609-sonli farmoni hamda 2014 yil 15 apreldagi “Tadbirkorlik faoliyatini

²³O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi PQ-1754-sonli qaror

amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2164-sonli qarori asosida kichik tadbirkorlik sub'ektlariga bir qator preferentsiyalar, yengilliklar va imtiyozlar berildi.

Zamonaviy soliq siyosatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalariga ham keng o'rin berilmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish borasida eirishilgan yutuqlar haqida to'xtalar ekanmiz, Prezidentimiz I.A.Karimovning ma'ruzasidagi fikrlarini keltirish joizdir: “2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi va AQSH dollari hisobida 14 milliard 600 million dollarni tashkil etdi. Bunda jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 milliard dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir”²⁴.

Xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlariga to'xtalar ekanmiz, “Navoiy” EIIZda joriy etilgan imtiyozlarga ahamiyat qaratish lozim. “Navoiy” EIIZ qatnashchilari yer solig'i, mol-mulk solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, Respublika yo'l jamg'armasi va byudjetdan tashqari maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy to'lovlar to'lashdan ozod qilinadi. Mazkur imtiyozlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar xajmi:

- 3mln yevrodan 10 mln yevrogacha teng (ekvivalent) bo'lganda - 7 yilga;
- 10 mln yevrodan 30 mln yevrogacha teng (ekvivalent) bo'lganda - 10 yilga beriladi.
- 30 mln yevrodan ortiqqa teng(ekvivalent) bo'lganda - 15 yilga beriladi.

²⁴ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O'zbekiston”, 2015. 71 b.

“Navoiy” EIIZ qatnashchilariga imtiyozlar to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarning belgilangan xajmiga :

- oyning 15 kunigacha erishilganda -oyning boshidan;
- qolgan boshqa xollarda -keyingi oynning boshidan tatbiq etiladi.

“Navoiy” EIIZ qatnashchisi tomonidan to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarning xajmi imtiyoz qo`llanadigan darajagacha ko`paytirilganda, imtiyozlar investitsiyalar xajmiga ko`ra imtiyozni qo`llash xuquqi yuzaga kelgan oydan boshlab qo`llaniladi xamda imtiyozlarning amal qilish muddati tugaguncha qolgan davrda amal qiladi.

To`g`ridan-to`g`ri investitsiyalarning xajmi oldingi berilgan muddatdan ortiq bo`lgan muddatdagi darajagacha ko`paytirilganda imtiyozlar investitsiyalarning xajmiga ko`ra imtiyozni qo`llash xuquqi yuzaga kelgan oydan boshlab qo`llaniladi xamda imtiyozning uddati amal qilishi xisobga olingan xolda uzaytiriladi.

2.2. Fiskal siyosat orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish holatini tahlili

Davlat byudjetining asosiy vazifasi – davlatning fiskal siyosati mohiyati va yo`nalishlarini o`zida ifoda etadi. Kengroq ma`noda aytganda, davlat byudjetining asosiy vazifasi milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash, iqtisodiyotni tartibga solish va rag`batlantirish, ijtimoiy siyosatni moliya bilan ta`minlash, mamlakatning markazlashtirilgan pul jamg`armalarini vujudga keltirish va ulardan foydalanish ustidan nazorat kilish hisoblanadi.

Davlat byudjeti xarajatlari tom ma`noda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining moliyaviy mazmunini aks ettiradi. O`zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarining keyingi yillardagi tarkibiy tahlillari ko`rsatadiki, xarajatlar nominal mazmunda (mutlaq ko`rsatkichlarida) ortib borayotganligini kuzatishimiz

mumkin. Lekin, uning yalpi ichki mahsulotga nisbatan salmog`ining kamayib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, davlat byudjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining izchil ravishda ortib borayotganligi davlatimiz tomonidan kuchli ijtimoiy siyosatning moliyaviy asoslari shakllantirilayotganligidan dalolatdir.

Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibidagi ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari yil sayin oshib borgan(8-jadval)

8-jadval

2011- 2015 yillarda davlat byudjeti xarajatlarining tarkibi va dinamikasi²⁵

Ko`rsatkichlar	2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	Mrld. so`m	%	Mrld. so`m	%	Mrld. so`m	%	Mrld. so`m	%
Davlat byudjeti xarajatlari, milliard so`m	21190	100	26312	100	31582	100	37967,7	100
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlash xarajatlari	12338	58,3	15573	59,2	18873	59,7	22457,0	59,1
Iqtisodiyot xarajatlari	2338	11	2791	10,6	3385	10,7	4119,7	10,1
Markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish	1174	5,5	1300	4,9	1500	4,7	1800	4,7
Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, organlari xarajatlari	844	3,9	825	3,1	1000	3,1	1199,9	3,1
Boshqa xarajatlar	4495	21,2	5813	22,0	6903	21,8	8391,1	22,0

²⁵O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma`lumotlari

Keyingi 5 yil mobaynida jami byudjet xarajatlarining tarkibida ijtimoiy sohaga qilinayotgan xarajatlar 2011 yilda 58,2 foizdan 2015 yilda 59,1 foizgacha o'sib borgan. ushbu xarajatlar 2012 yilda 12513 milliard so'mga rejalashtirilib, jami byudjet xarajatlarida 58 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan bo'lsa, 2013 yil uchun kelib ushbu xarajatlar 15573 milliard so'm hajmida rejalashtirilgan va uning jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 59,2 foizni va 2014 yilda esa 18 783,4 mlrd so'm yoki 59,5 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan. Demak, ushbu sohaga qilinayotgan xarajatlar, birinchidan, nominal mazmunda va shuningdek, umumiy xarajatlar salmog'ida ham ortib bormoqda.

Ushbu holat jahondagi barcha davlatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etadiki, o'z navbatida, respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning uzoq, strategik ahamiyatga ega ekanligidir. Shuningdek, ushbu xarajatlarning o'sib borishi bilan birga, ularning davlat byudjeti xarajatlaridagi eng yuqori salmoqni tashkil etmoqda.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari faoliyati uchun xarajatlar jami xarajatlar tarkibida 2011 yilda jami byudjet xarajatlari 3,7 foizni, 2015 yilga kelib esa bu xarajatlar 3,1 foizni tashkil etmoqda. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sud organlari ta'minoti uchun saqlash xarajatlar jami xarajatlar tarkibida 2012 yilda 2,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda bu xarajatlar 3,1 foiz darajasida va 2014 yilda 3,2 foiz bo'lishi ko'zda tutilgan. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ta'minot xarajatlari 2013-2014 yillarda jami byudjet xarajatlarining 1,1 foizini tashkil etayotgani kuzatilmoqda. Bu o'z navbatida davlat boshqaruvi tizimida mahalla institutining rolini oshirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bevosita bog'liqdir. Demak, nominal mazmunda ushbu xarajatlar qariyb 2 barobardan ko'p o'sgan bo'lsa-da, ularning byudjet xarajatlaridagi salmog'i kamayib borgan.

Iqtisodiyot xarajatlari esa 2011 yilda 1938 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, jami byudjet xarajatlarida 11,5 foizni tashkil etgan. 2015 yilga kelib ushbu

xarajatlarning jami davlat byudjeti xarajatlaridagi salmog'i 10,1 foizni tashkil etgan. Lekin, ushbu xarajatlar nominal mazmunda o'sib borgan.

Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasining byudjet xarajatlaridagi ulushi oxirgi yillarda 0,3 foizni tashkil etib, o'zgarmayotganligini ko'rish mumkin.

Boshqa xarajatlarning jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 2012-2013 yillarda 20,7foizni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda 0,2 foizga kamayib 20,5 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Markazlashtirilgan investitsiyalarni byudjetdan moliyalashtirish uchun 2011 yilda 1037 mlrd. so'm, 2011 yilda 1037 mlrd. so'm, 2012 yilda 1174 mlrd. so'm, 2013 yilda 1300 mlrd. so'mni, 2014 yilda 1500 mlrd. so'mni va 2015 yilda 1800 mlrd. so'mni tashkil etmoqda. Bu, o'z navbatida, hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yangilash, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish bilan bog'liq yirik va strategik ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishda byudjet investitsiyalarining ham ahamiyati yuqoriligidan dalolat beradi.

Shu o'rida jami investitsiyalar taribida byudjetdan moliyalashtirilgan investitsiyalarning salmog'ini ko'ramiz (9-jadval).

9-jadval

Investitsiyalar tarkibida byudjet mablag'larining ulushi²⁶

	2012	2013	2014
Jami	22067,0	27557,3	3715,3
Markazlashgan investitsiyalar mlrd so'm	4535,0	5504,8	6780,8
Jami investitsiyalarga nisbatan %da	17532,0	20,0	20,1
Byudjet mablag'lari mlrd. so'm	1120,6	1510,4	1577,2
Jami investitsilarga nisbatan %da	5,1	5,5	4,7
Jami markazlashgan investitsiyalarga nisbatan %da	24,7	27,4	23,3

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari

2012 yilda ushbu investitsiyalarning ulushi jami investitsiyalar tarkibida 5,1 foizni, 2013 yilda 5,5 foizni va 2014 yilda 4,7 foizni tashkil qilgan. Markazlashgan investitsiyalar tarkibida esa 2012 yilda 24,7 foizni , 2013 yilda 27,4 foizni va 2014 yilda 23,3 foizni tashkil qilib, o'tgan yilga nisbatan 4,1 foizga kamaygan.

Yuqoridagi jadval ko'rsatkichlari byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'zida ifoda etib, unda tabiiy ravishda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari ustuvor ekanligi kuzatilmoqda.

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti uchun nisbatan yuqori darajadagi moliyaviy yuk bo'lib tushayotgan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari bir tomondan aholining kam ta'minlagan qatlamini himoyalash moliyaviy asosini o'zida ifodalaydi. Ikkinchidan, aholining turmush farovonligini oshirish, zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini shakllantirishda davlat byudjetining ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatib bermoqda.

Davlat byudjetining ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy nafaqalar kabi xarajatlarni o'z ichiga oladi. Buni quyidagi jadval ma'lumotlari orqali ko'rishimiz mumkin.

2011-2015 yillardagi davlat moliyasi tizimi barqarorligini ta'minlash bo'yicha islohotlardagi muhim qadamlardan biri bu – bir nafar o'quvchiga (tarbiyalanuvchiga) xarajatlarning bazaviy me'yorlaridan kelib chiqqan holda maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining byudjetini rejalashtirish va xarajatlarini moliyalashtirish tartibi joriy etilganligi va 2010 yildan boshlab ushbu tartibni respublikaning barcha hududlaridagi mazkur muassasalarga tatbiq etilgani hisoblanadi. Natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirishning ushbu mexanizmi byudjet muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirilishini ta'minladi va xarajatlarning manzilli va maqsadli sarflanishi uchun sharoit yaratilishiga olib kelmoqda.

**Davlat byudjetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash
xarajatlar tarkibi²⁷**

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	Mrld. so'm	%	Mrld. so'm	%	Mrld. so'm	%	Mrld. so'm	%	Mrld. so'm	%
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	9723	100	12338	100	15573	100	18873	100	22457,0	100
Ta'lim	5604	57,6	7163	58,1	8984	57,6	10765	57,0	12776,2	56,8
Sog'liqni saqlash	2228	22,9	3027	24,5	3768	24,1	4495	23,8	5372,5	23,9
Madaniyat va sport	185	1,9	226	1,8	279	1,7	334	1,7	388,2	1,7
Ilm-fan	109	1,1	139	1,1	173	1,1	199	1,0	245,3	1,0
Ijtimoiy ta'minot	72	0,7	87	0,7	107	0,7	125	0,7	150,4	0,6
Oilalarga ijtimoiy nafaqalar	1383	14,2	1624	13,1	1839	11,8	2047	10,8	2279,8	10,1

2011-2015 yillar mobaynida byudjet tashkilotlarida ish haqi va ijtimoiy nafaqalarning izchil ravishda oshirib borilishi davom ettirildi. Jumladan, birgina byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi 2014 yilda 23,2 foizga oshirildi. Prezidentimiz Islom Karimov 2014 yildagi erishilgan natijalarga to'xtalib, quyidagi fikrlarni aytib o'tgan edi: "Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun

²⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, PQ № 1449, 1675, 1887, 2099,2270

mustahkam zamin yaratmoqda. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o'tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko'paydi"²⁸.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti xarajatlarni nafaqat, yurtdoshlarimizning turmush farovonligini oshirish bilan birga aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarini oshirishini ta'minlash orqali mamlakat milliy iqtisodiyotida yalpi iste'mol talabini rag'batlantirishda muhim moliyaviy omil bo'lib hisoblanmoqda. Bu o'z navbatida hozirgi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining tez o'zgarib borayotgan halqaro bozorlardagi kon'yunkturaning salbiy ta'siridan o'ziga xos ravishdagi "Immuniteti"ni shakllantirishda asos bo'lib xizmat qilayotir.

Demak, davlat byudjeti xarajatlari bir tomondan ijtimoiy sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishning mustahkam moliyaviy manba bo'lib hisoblanishi bilan birga, milliy iqtisodiyotdagi islohotlarda davlatning bosh islohotchilik rolini bajarishida ham markaziy o'rinni egallayapti. Hozirgi global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida respublikamiz oziq-ovqat xavfsizligining asosi hisoblangan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, sohadagi ishlab chiqarishni intensivlashtirishda davlat byudjetining ahamiyati ham yuksak bo'lmoqda.

Davlat byudjetidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr-energiyasi to'lovlariga xarajatlar;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar;

1. ²⁸Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: "O'zbekiston", 2015. 71 b.

– hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo`jaliklarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag`lar.

Davlat byudjetidan iqtisodiyotni qo`llab-quvvatlash uchun xarajatlari tarkibida Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo`jaligi tashkilotlari tomonidan iste`mol qilinadigan elektr-energiyasi to`lovlari jami byudjet xarajatlari tarkibida 2011 yilda 3,7 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2011 yilda 3,8 foizni, 2012 va 2013 yillarda 3,5 foizni, 2014 yilda 3,4 foizni, 2015 yilda esa 3,3 foizni tashki etishi ko`zda tutilgan.

11- jadval

Davlat byudjetining iqtisodiyot xarajatlari tarkibi²⁹, jamiga nisbatan foizda

Ko`rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2015 yil
Davlat byudjeti xarajatlari	100	100	100	100	100
Iqtisodiyotga ajratilgan xarajatlar	11,5	11,0	10,6	10,7	10,8
Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi tasarrufidagi suv xo`jaligi tashkilotlari tomonidan iste`mol qilinadigan elektr-energiyasi to`lovlari	3,8	3,5	3,5	3,4	3,3
Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondiga maqsadli ajratmalar	1,1	0,9	0,8	0,9	0,8
Hosildorligi past yerlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo`jaliklarini moliyaviy qo`llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag`lar	0,8	0,7	0,8	0,9	0,6
Boshqa xarajatlar	5,7	5,7	5,7	5,8	6,1

²⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarorlari, PQ № 1449, 1675, 1887, 2099,2270

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrda «Erlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq “Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini 2008-2012 yillarda yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi” ishlab chiqilgan. Ushbu dastur doirasida maxsus fond tashkil etilgan bo'lib, ushbu fond mablag'larini shakllantirishga byudjetdan xarajatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu fondga ajratmalarning 2015 yildagi miqdori jami byudjet xarajatlari nisbatan 0,8 foizni tashkil etmoqda.

“Hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosini yetishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risida”gi Nizomda davlat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar quyidagi yo'nalishlarda sarflanishi ko'zda tutilgan:

- fermer xo'jaliklarining soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha qarzдорliklari, boshqa joriy majburiyatlari, asosiy maxsulotlarni yetishtirish uchun moddiy-texnika resurslar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzlari to'lashga;

- kelgusi yil hosili uchun sotib olinadigan resurslar va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan to'lovlarga;

- yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini va xo'jalikning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Ushbu xarajatlarning jami byudjet xarajatlari salmog'i 2015 yilga kelib 0,6 foizni tashkil etmoqda. Umumiy tendentsiyada pasayish kuzatilayotgan bo'lsa-da, nominal mazmunda uning o'sib borayotganligi kuzatilmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti xarajatlari oqilona boshqarish pirovardida nafaqat ijtimoiy sohadagi davlat islohotlarining samaradorligi ortmoqda, balki, o'z navbatida milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlanishini ta'minlashning samarali mexanizmlarini shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'linadi.

Xukumatning bandlik darajasi, ishlab chiqarish hajmi, inflyatsiya sur'atlari va to'lov balansi holatini o'zgartirishga yo'naltirilgan maxsus qarorlarni qabul

qilishi natijasida davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig'ini maqsadli o'zgartirilishi diskret fiskal siyosat deyiladi. Diskretion fiskal siyosatyuritilganda iqtisodiy pasayish davrida jami talabni rag'batlantirish uchun davlat xarajatlarini oshirilishi va soliqlarni kamaytirilishi natijasida davlat byudjeti kamomadi yuzaga keltiriladi. O'z navbatida davriy ko'tarilish paytida byudjet ortiqchaligi yuzaga keltiriladi. Diskretion fiskal siyosat iqtisodiy tebranishlarni yumshatishda muhim rol o'ynasada, uning ayrim kamchiliklari mavjud. Bu, avvalambor, vaqt oraliqlari bilan bog'liq.

Nodiskretion fiskal siyosat — davlat xarajatlari, soliqlar va davlat byudjeti qoldig'ini avtomatik o'zgartirishni ko'zda tutadi. Nodiskretion fiskal siyosat o'rnatilgan barqarorlashtirgichlarga asoslanadi. Rivojlangan davlatlarda o'rnatilgan barqaror-lashtirgichlari rolini progressiv soliq tizimi, davlat transfertlari tizimi va foydada ishtirok etish tizimi o'ynaydi. Nodiskretion fiskal siyosat davriy tebranishlarni yumshatish uchun huqumatning bevosita aralashuvini talab etmaydi.

12-jadval

Davlat byudjeti ko`rsatkichlarining bajarilishi darajasi³⁰, foizda

Yillar	Davlatbyudjetijrosi	Yillar	Davlatbyudjetijrosi
1995 yil	-4,1	2006 yil	+0,5
1996 yil	-7,3	2007 yil	+1,1
1997 yil	-4,5	2008 yil	+1,5
1998 yil	-3,3	2009 yil	+0,2
1999 yil	-3,0	2010 yil	+0,3
2000 -2001 y	-1,0	2011-2012 y	+0,4
2002 yil	-0,8	2013yil	+0,3
2003-2004 y	-0,4	2014 yil	+0,2
2005 yil	-0,1	2015 yil	+0,1

³⁰O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti 2005 yildan buyon profitsit bilan ijro etilayotganligi byudjet xarajatlaridan samarali foydalanilayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti 2005 yilga qadar YaIMga nisbatan 1-0,4 foiz miqdorida defitsit bilan ijro etilgan bo'lsa, 2005 yildan 2008 yilgacha bo'lgan muddatda byudjet profitsiti 0,1 foizdan 1,5 foizgacha ko'tarilgan. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining ta'siri natijasida 2009 yilda YAIMga nisbatan 0,2 foizlik profitsit bilan ijro etilgan bo'lsa, 2012 yilda ushbu ko'rsatkich YAIMga nisbatan 0,4 foizni va 2013 yilda 0,3 foizni, 2014 yilda 0,2 foizni va 2015 yilda 0,1 foizni tashkil etgan. Bunda daromad tushumlari bo'yicha reja ko'rsatkichlari oshirib bajarilayotgani va byujet mablag'laridan samarali foydalanilayotganligini ko'rish mumkin. Bu holatni esa aynanning samarali fiskal siyosat bilan izohlash mumkin.

2 bob bo'yicha xulosa

Fiskal siyosatni ikki bo'lagi bo'lgan soliq va byudjet siyosatining mutanosib olib borilishi iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kundagi soliq siyosatida soliq yukini kamaytirish, ayniqsa to'g'ri soliqlarni stavkalari pasaytirish orqali yuridik va jismoniy shaxslar ixtiyorida pul mablag'larini qoldirilishi, ularga, birinchidan, ishlab chiqaishni kengaytirishga imkoniyat bersa, ikkinchidan aholi daromadlarini ko'payishiga imkon beradi.

Hozirgi sharoitda davlat byudjeti uchun nisbatan yuqori darajadagi moliyaviy yuk bo'lib tushayotgan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari bir tomondan aholining kam ta'minlagan qatlamini himoyalash moliyaviy asosini o'zida ifodalaydi. Ikkinchidan, aholining turmush farovonligini oshirish, zamonaviy sog'liqni saqlash tizimini shakllantirishda davlat byudjetining ahamiyati ortib borayotganligini ko'rsatib bermoqda.

3 BOB. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT FISKAL SIYOSATINI AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI

3.1. Fiskal siyosatni amalga oshirishning xorij tajribasi

Rivojlangan mamlakatlarda soliq siyosatining muhim yo`nalishi soliq imtiyozlarini taqdim etish, foydadan soliq stavkasining pasaytirilishi hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada kichik korxonalar foydasiga nisbatan pasaytirilgan 24 foizlik stavkada soliq solinadi. Bu stavka boshqa korxonalar uchun 33 foiz qilib belgilangan.

Frantsiya soliq qonunchiligida kichik biznes sub`ektlari uchun soddalashtirilgan va umumbelgilangan soliqlarni to`lash rejimlari joriy qilingan. Mikrofirma va kichik korxonalar soddalashtirilgan soliq tizimiga o`tishlari uchun yillik tovar aylanmasi bo`yicha me`yor belgilangan bo`lib, shu me`yor doirasida tovar aylanmasiga ega bo`lgan korxonalargina soddalashtirilgan tartibda soliq to`laydilar. Bu tizimga o`tgan korxonalar QQSdan ozod qilinganlar. Umumbelgilangan tartibda soliq to`lovchi yuridik shaxslar foydasiga solinadigan soliq ularning oladigan sof foydasidan undiriladi va asosiy stavkasi 33,3% qilib belgilangan. Kichik biznes sub`ektlari uchun 15 foizli stavka amal qiladi. Lekin shuni ham ta`kidlash joizki, soliq imtiyozi hisobiga bo`sh qolgan mablag` korxonaning ustav kapitalini oshirishga va ishlab chiqarishni kengaytirishga yo`naltirilish lozim.

Yaponiyada korxonalar daromad (korporativ) solig`ini to`laydilar. Korxonalar daromad solig`i stavkasi daromadlilik darajasi va ustav jamg`armasi miqdoriga qarab belgilanadi (13- jadval). Ko`rinib turibdiki, Yaponiyada kichik korxonalarga korporatsiya solig`i bo`yicha amaldagi 30 foizli stavka o`rniga pasaytirilgan 22 foizli stavkalar joriy etilgan. Korporatsiya bo`yicha pasaytirilgan stavkalarning qo`llanilishi uchun, birinchi navbatda ushbu korxonaning ustav jamg`armasi miqdori cheklangan, ikkinchi navbatda, uning yillik daromadi miqdori mezon qilib olingan. Agar korxonaning ustav jamg`armasi 100,0 mln.

yendan kam bo'lsada, tovar aylanmasi 8,0 mln yendan yuqori bo'lsa, imtiyozli stavkadan foydalanish huquqiga ega bo'lmaydi.

13 -jadval

Yaponiyada korxonalar uchun korporatsiya solig'ining tabaqalashgan stavkalari³¹

№	Korxonalar		Soliq stavkasi
1	100,0 mln yendan kam miqdordagi	Yillik daromad qismi 8,0 mlndan kam	22%
	ustav jamg'armasiga ega yuridik shaxslar	Yillik daromad qismi 8,0 mlndan ortiq	30%
2	100,0 mln yendan ortiq miqdordagi ustav jamg'armasiga ega yuridik shaxslar		30%
3	Jamoat tashkilotlari		22%

Rossiyada kichik biznes sub'ektlari uchun soddalashtirilgan soliq tizimi 2003 yil 1 yanvardan boshlab qo'llanila boshlangan. Korxonalar va tadbirkorlar faoliyati ixtiyoriy ravishda qonunchilikda belgilangan uchta asosiy mezonga mos kelgan taqdirda soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tishlari mumkin. Ya'ni korxonaning 9 oylik daromad miqdori 15 mln rubldan yuqori bo'lmashligi,

³¹ Moliya jurnali, 2010 yil 10-son, 62-bet

korxonada ishlovchilar soni 100 kishidan ko'p bo'lmashligi hamda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati 100 mln rubldan yuqori bo'lmashligi lozim.

Ushbu tizim soliq to'lovchilari bir qancha soliqlar va yig'imlar o'rniga yagona soliq to'laydilar. Jami daromad yoki xarajatlarga kamaytiriluvchi daromad yagona soliqning ob'ekti hisoblanadi. Yagona soliqning stavkasi jami daromaddan 6% va xarajatlarga kamayuvchi daromaddan 15 % miqdorida belgilangan. Ushbu tartibni korxonalar yoki tadbirkorlar ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga egalar. Daromaddan chegiriluvchi xarajatlar soliq kodeksida belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, Rossiyada kichik va xususiy biznes uchun quyidagi imtiyozlar joriy etilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, xalq iste'mol mollari, qurilish materiallari, tibbiyot texnikasi, dori-darmon ishlab chiqarish, uy-joy, ijtimoiy hamda ishlab chiqarish ob'ektlari qurish bilan shug'ullanuvchi kichik va xususiy korxonalar birinchi 2 yil davomida soliq to'lamaydilar.

AQSHda federal darajadagi eng yuqori korporatsiya solig'i bilan bir qatorda (hozirgi kunda bu soliq 35 foizni tashkil qiladi) kichik va xususiy korxonalar uchun 15 va 25 foizlik stavkalardan foydalaniladi.

AQSH va Rossiya Federatsiyasida byudjet daromadlari tarkibida kichik va xususiy biznes korxonalari to'laydigan soliq korxonalar foydasidan undiriladigan soliq tarkibida hisobga olinadi.

Xitoyda kichik va o'rta korxonalarda xodimlar soni 500 kishidan oshmaydi. 2000 yilga borib bu mamlakatda kichik va o'rta korxonalar soni 9 mln dan oshib ketdi. Bunday korxonalar jami sanoat mahsulotining 60 foizini ishlab chiqarmoqda va davlat xazinasiga umumiy soliqlar yig'imining 40 foizdan ko'prog'ini tushirib, mamlakat mehnatga layoqatli aholisining 75 foizini ish bilan ta'minlamoqda. XXRda kichik va o'rta korxonalar tadbirkorlik faoliyati uchun tadbirkorlik solig'ini to'laydilar. Bu soliqni korxona va fuqarolar ham to'laydi. Soliq ob'ekti yalpi tushum hisoblanadi. Soliq stavkalari 14 –jadvalda keltirilgan.

Tadbirkorlik faoliyati uchun tadbirkorlik solig'i stakalari³²

№	Soliqqa tortish bo'yicha faoliyat turlari	Stavka %
1	Aloqa va transport	3
2	Moliya va sug'urta biznesi	8
3	Qurilish	3
4	Pochta va televizion aloqa	3
5	Madaniyat va sport	3
6	O'yingohlar	5-20
7	Xizmat ko'rsatish	5
8	Nomoddiy aktivlarni ijaraga berish	5
9	Ko'chmas mulkni sotish	5

Xitoyda kichik va o'rta biznesni bunday jadal rivojlanib, mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutishi, uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishidan iborat oqilona siyosat natijasidir. Bu iqtisodiy siyosat quyidagi tadbirlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi:

- Texnologiya sohasidagi yangiliklarning ishlab chiqarishag joriy ejetilishi va mehnat samaradorligining oshirilishi;
- Kichik va o'rta korxonalrni texnologiyalar bilan yangilashga qaratilgan maxsus fondning yaratilishi;
- Moliya imtiyozlari berilish va soliq yukining kamaytirilishi.

³²Moliya jurnali, 2010 yil 10-son, 64-bet

Kichik biznes sub`ektlarini soliqqa tortishda xorijiy mamlakatlar tajribasi ko`rsatishicha, kichik biznes sub`ektlarini aniqlash mezonlariga faoliyat turiga qarab ishchilar soni, yillik daromadi, kapital qo`yilmalari miqdori ham qo`shilgan.

Yuqorida ko`rib o`tilgan mamlakatlar amaliy tajribalardan ko`rinib turibdiki, kichik biznes sub`ektlari uchun foyda solig`i bo`yicha pasaytirilgan soliq stavkalari joriy etilishi kichik biznes sub`ektlarining moliyaviy barqarorlik darajasi oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi va o`z navbatida, kichik biznesning mamlakatda yanada jadallik bilan rivojlaniishga zamin yaratadi. Bu esa moliya-soliq siyosatining samarali olib borilayotganligidan dalolat beradi.

3.2 O`zbekistonda barqaror rivojlanishda fiskal siyosatni ahamiyatini oshirish masalalari

2015 yilda yuqori iqtisodiy o`sish sur`ati ta`minlanganligining quyiagi asosiy omillari e`tirof etildi:

Birinchidan, xususiy sektorning keng rivojlanishiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo`llab quvvatlash borasida tizimili ishlarning amalga oshirilishi natijasida:

✓ YaIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 56,7 foizdan oshdi. 2000 yilga nisbatan uning ulushi 1,8 barobar oshdi. Ushbu sohada band aholining 77 foizdan ortig`i ishlamoqda.

✓ Agar 2000 yilda sanoatda kichik biznesning ulushi 14 foizni tashkil qilgan bo`lsa, 2015 yilda 38 foizdan oshib ketdi.

Ikkinchidan, makroiqtisodiy barqarorlik ta`minlanganligi natijasida:

✓ Inflyatsiya darajasi – 5,6%, davlat byudjeti profitsiti YAIMga nisbatan 0,1% miqdorida ijro etildi. Tashqi savdo aylanmasida 450 mln. Dollar ijobiy sal do ta`minlandi. Davlatning tashqi qarzi YAIMga nisbatan 18,5 foizdan oshmadi (xalqaro moliya tashkilotlarning normasi bo`yicha 60 foizdan oshmasligi kerak).

✓ Tijorat banklarining jami kapitali 23,3 foizga va ularning aktivlari 25,1 foizga o'sdi.

Uchinchidan, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, texnologik yangilash natijasida:

✓ sanoat ishlab chiqarish 8 foizga, jumladan iste'mol tovarlari 9,7 foizga o'sdi. Ayniqsa, YaIMda sanoatning ulushi oshdi.

✓ Yirik korxonalarda 162,4 mln. Dollarlik salkam 4 mingta ma'naviy va jismoniy eskirgan asbob-uskunalarni almashtirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini o'rtacha 10,5 foizga pasaytirish, shuningdek, mahalliyashtirilgan mahsulotlarning 820 tadan ortiq turlarini o'zlashtirish natijasida tarmoqlar raqobatdoshligini oshirish imkonini berdi.

To'rtinchidan, faol investitsiya siyosatini amalga oshirish natijasida:

✓ unda xomashyo va yarim fabrikatlarni chuqur qayta ishlash asosida raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan zamonaviy va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga alohida e'tibor qaratildi.

✓ 2015 yilda jami 15,8 milliard dollar ekvivalentida investitsiyalar o'zlashtirildi. Bu 2014 yilga nisbatan 9,5 foiz ko'pdir. Jami investitsiyalarning 21 foizi xorijiy investitsiyalar bo'lib, shuning 73 foizi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalaridir.

✓ Investitsiyalarning 67,1 foizi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etishga yo'naltirildi. 2015 yilda umumiy qiymati 7,4 milliard dollar ekvivalenti bo'lgan 158 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti foydalanishga topshirildi

Yuqoridagi yutuqlarni davom ettirish maqsadida hukumatimiz tomonidan 2016 yilgi iqtisodiy dasturning quyidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi:

- ✓ YaIM – 7,8%
- ✓ Sanoat – 8,2%
- ✓ Qishloq xo'jaligi – 6,1%
- ✓ Kapital qo'yilmalar – 9,6%
- ✓ Chakana savdo aylanmasi – 14%

- ✓ Xizmatlar ko`rsatish – 17,4%
- ✓ Inflyatsiya – 5,5-6,5% doirasida saqlash
- ✓ Umumiy qiymati 5 milliarddan ziyod bo`lgan 164 ta yirik investitsiya

loyihalari yakunlanadi.

Jami iqtisodiyotga 17,3 milliard doll. Investitsiyalar yo`naltiriladi. O`sinh sur`ati 109,3% bo`ladi. Uning 4 milliarddan ortig`i xorijiy investitsiyalar tashkil etib, o`tgan yilga nisbatan 20,8% ko`pdir.

Mamlakatda iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda soliq stavkalari pasaytirish orqali soliq yukini kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz Rahbari tomonidan belgilab berilgan ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik sub`ektlarini ishonchli himoya qilishni ta`minlash, ularni jadal rivojlantirish yo`lidagi to`siqlarni bartaraf etish vazifalaridan, shuningdek 2016 yil uchun soliq va byudjet siyosatining asosiy yo`nalishlaridan kelib chiqib, soliq yukini yanada pasaytirishga, soliq tizimini soddalashtirishga va soliq ma`murchiligini takomillashtirishga qaratilgan 4 ta muhim hujjat qabul qilindi.

2016 yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlarida aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog`liq quyidagi masalalar ko`zda tutilgan:

- ✓ Aholi real daromadlari – 9,5% ga oshirish;
- ✓ O`rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya, va nafaqalarni, soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda – 15% ga oshirish.

Shu munosabat bilan 2016 yilning 1 yanvaridan jismoniy shaxslarning daromad solig`i stavkasini 2 pog`onasi, ya`ni 8,5% o`rniga 7,5% qilib belgilandi. Buning natijasida esa mamlakatimiz bo`yicha 235,4 mlrd so`m mablag` soliq to`lovchilar ixtiyorida qolishi kutilmoqda. Bunda, soliq solish shkalasi 2016 yil 1 yanvarga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan (130 240 so`m) kelib chiqib aniqlanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomida o`zgarishiga qaramasdan qayta ko`rib chiqilmaydi.

Davlat byudjeti barqarorligini ta`minlash maqsadida:

- Jismoniy shaxslarning mol–mulk solig`i, yer solig`i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari o`rtacha 15 foizga indeksatsiya qilindi.

- Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkasi 5 foiz qilib belgilandi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkini inventarizatsiya qiymati mavjud bo`lmasa, soliq undirish uchun:

- Toshkent shahri va viloyat markazlarida 20 328,0 ming so`m,
- boshqa shaharlar va qishloq joylarda – 8 833,0 ming so`m miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning inventarizatsiya qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 3 mln. so`mdan kam bo`lmasligi kerak.

Qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish borasida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 oktyabrdagi 439-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Kichik tadbirkorlik (biznes) sub`ektlariga tegishli bo`lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasi”ga o`zgartirish kiritilib, avtomobil transporti sohasida faoliyat yurituvchi kichik korxonalar uchun xodimlarining chegaraviy soni 25 tadan 50 tagacha oshirilganda ham kichik korxona sifatidagi imtiyozi berildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrdagi “2016-2020 yillarda qishloq xo`jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2460-sonli qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to`ldirish yuzasidan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi PQ–1047-sonli qarorida belgilangan asosiy faoliyat turi bo`yicha go`sht va sutni qayta ishlashga ixtisoslashayotgan mikrofirma hamda kichik korxonalarning yagona soliq to`lovi stavkasini 50 foizga kamaytirish, bo`shaydigan mablag`larni maqsadli tarzda yo`naltirish sharti bilan berilgan imtiyoz 2021 yil 1 yanvargacha uzaytirildi.

Bundan tashqari, 2021 yilning 1 yanvariga qadar nasldor chorvachilik sub`ektlari asosiy faoliyat turi bo`yicha barcha soliqlar va maqsadli davlat jamg`armalariga majburiy ajratmalarni to`lashdan ozod etildi.

Amal qilish muddati 2018 yil 1 yanvargacha uzaytirilgan imtiyozlar :

1) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 yanvardagi “Mahalliy nooziq-ovqat iste`mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag`batlantirish borasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PQ-1050-sonli qarorining 3-bandida belgilangan nooziq-ovqat iste`mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar uchun foyda solig`i, mol-mulk solig`i va mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to`lovi hamda Respublikayo`l jamg`armasiga majburiy ajratmalar to`lashdan ozod etish tarzidagi imtiyozlar;

2) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 21 noyabrdagi PQ-733-sonli qarorining 3-bandida belgilangan to`qimachilik sanoati korxonalari uchun mol-mulk solig`i to`lashdan ozod etish bo`yicha imtiyozlar

3) O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 25 martdagi 141-sonli qarorining 5-bandiga asosan “O`zbekengilsanoat” davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi korxonalariga kontrakt tuzish paytida vujudga kelgan jahon narxlaridan past bo`lmagan narxlar bo`yicha erkin muomaladagi valyutaga (qo`shilgan qiymat solig`ini nol stavka bo`yicha hisoblagan holda) ichki bozorda yarim tayyor to`qimachilik mahsulotlarini (kalava, gazmol, trikotaj polotno va paxtani yigirish chiqindilarini) xarid qilishiga istisno tariqasida ruxsat berish tarzidagi imtiyozlar.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish borasidagi 2016 yilgi iqtisodiy dasturning quyidagi eng muhim ustuvor yo`nalishlari belgilab olindi:

- ✓ Ijtimoiy sohaga Davlat byudjeti jami xarajatlarining 59,1 foizi ajratiladi.
- ✓ Jumladan, ta`lim-tarbiya sohasiga davlat byudjetlarining 33,7 foizi, sog`liqni saqlash tizimiga 14 foizi yo`naltiriladi.
- ✓ Ta`lim-tarbiya sohasini ta`minlash va rivojlantirish sarf-xarajatlari o`tgan yilga nisbatan 16,3 foizga, sog`liqni saqlash tizimida 16 foizga ko`payadi.

Joriy yilda 13 ta oliy ta'lim muassasalaridagi qurilish va rekonstruktsiya ishlariga 355 milliard so'm ajratiladi.

15-jadval

Ta'lim muassasalariga moddiy-texnik ta'minot uchun sarflangan mablag'lar to'g'risida ma'lumot³³

Ko'rsatkichlar	sarflangan mablag'larmablag'alar
<i>1998-2015 yillarda</i>	
Qurilish va rekonstruktsiya	3 307,3 mlrd. so'm
Jihozlashga:	
- Respublika va mahalliy byudjet	257,5 mlrd. so'm
- Xorijiy investitsiyalar	235,2 mln. AQSH doll.
Adabiyotlar chop etish	37,7 mlrd. so'm
<i>2015 yilda</i>	
Qurilish va rekonstruktsiya va mukammal ta'mirlash	147,6 mlrd. so'm
Jihozlashga:	
- Respublika va mahalliy byudjet dan 90 mlrd so'm mablag' ajratilgan bo'lib, bugungi kungacha o'zlashtirilgani	70,0 mlrd. so'm
- Xorijiy davlatlar granti	0,8 mln. AQSH doll.
Adabiyotlar chop etish	3,1 mlrd. so'm
<i>2016 yilda</i>	
Qurilish va rekonstruktsiya va mukammal ta'mirlash	145,0 mlrd. so'm
Jihozlashga: - Respublika va mahalliy byudjet	102,0 mlrd. so'm

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilandi:

✓ yer-suv resurslari cheklangan sharoitda ulardan oqilona va samarali foydalanish.

✓ yerning unumdorligi, uning bonitetidan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi ekinlarini navlar bo'yicha to'g'ri joylashtirish.

³³ O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi ma'lumotlari

✓ Bozor talablaridan kelib chiqqan holda 2020 yilgacha bo`lgan davrda ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish bo`yicha belgilangan prognoz ko`rsatkichlariga erishish. 2020 yilga borib, paxta va g`alla ekin maydonlari 220,5 ming ga qisqaradi.

✓ Past bonitetli, sho`rlangan, paxtaga yaroqsiz bo`lgan tog`oldi yerlarida g`o`za ekilmaydi.

✓ 2016 yilda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini 6,1 foizga oshirish.

2016 yilgi Davlat byudjeti parametrlarida investitsiyalarga yo`naltiriladigan mablag`larni 2015 yilga nisbatan 16 foizga oshirildi va 2,1 trln. so`mgacha yetkazildi.

Jumladan,

✓ Qishloq xo`jaligini uzluksiz suv bilan ta`minlashga va suv resurslaridan unumli foydalanishga qaratilgan zarur irrigatsiya inshootlari qurilishiga 504 mlrd. so`m;

✓ Qishloq aholi punktlarini ichimlik suvi bilan ta`minlashni yaxshilash maqsadida 3 ming km. ichimlik suvi tarmoqlarini qurilishi va rekonstruktsiya qilinishiga 159 mlrd. so`m.

Yuqoridagi tahlillardan ko`rinib turibdiki, davlat byudjeti xarajatlarini oqilona boshqarish pirovardida nafaqat ijtimoiy sohadagi davlat islohotlarining samaradorligi ortmoqda, balki, o`z navbatida milliy iqtisodiyotni muvozanatli rivojlanishini ta`minlashning samarali mexanizmlarini shakllantirish imkoniyatlariga ega bo`linadi.

3 bob bo`yicha xulosa

Davlat va mahalliy byudjet daromadlarininglarining shakllanishida asosiy o`rinni soliqlar egallaydi. Bozor munosabatlariga asoslangan davlatlarda soliqlar byudjet daromadlarini shakllantirishda va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim vazifalarni amalga oshiradi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish davlatning soliq siyosati bilan bevosita bog`liqdir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan soliq islohotlari ushbu tizimning samarali ishlashi uchun mavjud muammolarni yechishni talab etmoqda. Shu bois soliq tizimining muhim yo`nalishlaridan hisoblangan, xo`jalik sub`ektlaridan olinadigan egri soliqlarni takomillashtirish mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Davlat byudjeti xarajatlari tarkibini sifat jihatdan optimallashtirish. Hozirgi vaqtda davlat xarajatlari tarkibida kuchli ijtimoiy siyosat va aholini ijtimoiy himoya qilishni moliyalashtirish asosiy o`rin tutmoqda. Natijada ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlashga yo`naltiriladigan xarajatlar ulushi jami byudjet xarajatlariga nisbatan o`sib borayotganligini kuzatish mumkin.

XULOSA

Yuqoridagi boblarda fiskal siyosatni 2 qismga bo'lib, soliq siyosati va byudjet siyosatiga bo'lib o'rganganligimiz sababli, xulosalarni ham shunga mos ravishda berishni lozim topdik.

Birinchidan, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish hisobiga ularning o'zlarida qoldirilishi va ushbu mablag'lardan samarali foydalanish iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilishi bilan birga ijtimoiy sohadagi muammolar, ya'ni aholining kam daromadli tabaqasining daromadi oshishiga va ish o'rinlari yaratilib, bandlik masalasini ijobiy hal etishga va bularning natijasida byudjet daromadlarini kshpayishiga sharoit tug'diradi. Ayni bu holat soliq yukini kamaytirish bo'yicha eng muhim vazifa sifatida belgilangan ishlab chiqarishni faollashtirish omili bo'lgan xarid talabining jadal o'sishini ta'minlash vazifasini amalga oshirishga zamin yaratadi. Umumiy talabning o'sishi deyarli barcha tovarlar, shu jumladan iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni oshirish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omillarni yaratadi. Shu borada, avvalo, aholining daromadlari o'sishini ta'minlashi ko'zda tutilgan.

Shu sababli byudjet daromadlarini rejalashtirishni takomillashtirish yo'nalishlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- byudjet daromadlarini rejalashtirish uchun zarur ma'lumotlar bazasini etarli va sifatli darajada shakllantirish;
- bu boradagi huquqiy hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni tartibi, usullari, muddatlari hamda ishtirokchilar vazifalarini aniq ko'rsatib beruvchi huquqiy hujjat qabul qilish;
- ilmiy asoslangan va jahonning rivojlangan davlatlari amaliyotida qo'llaniladigan usullarni tatbiq qilish;
- oliy o'quv yurtlari va mutaxassislar malakasini oshirish muassasalarda zarur mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish.

Byudjet daromadlari tarkibida soliqlarni kamaytirishga soliqsiz daromadlarni ko'paytirish orqali erishish mumkin, shu sababli quyidagi choratadbirlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- davlat korxonalari va tashkilotlari ixtiyorida bo'lgan ko'chmas mulkdan foydalanish, ularni ijaraga berish shartlari va ijaradan olingan daromadlarni davlat byudjetiga kelib tushishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

- banklar, fondlar, investitsion va moliyaviy kompaniyalar kapitalida davlat ishtirokini optimizatsiyalash yuzasidan ishlarni amalga oshirish;

- davlat byudjetiga maksimal foyda keltirgan holda davlat ixtiyoridagi aktsiya, ulush va paylarni arzonroq narxda sotish.

Ikkinchidan, byudjet siyosatining maqsadi byudjet mablag'laridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, mablag'lani rejalashtirish to'g'ri yo'naltirish, ijtimoiy iqtisodiy sohani rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlashdir. Shunday ekan, davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati o'zgarmagan xolda, xozirgi kunga kelib davlat byudjeti faoliyatining xuquqiy asoslari to'liq ta'minlab berilgan, jumladan byudjet jarayonini tashkil etishda, iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda.

Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish orqali, kerakli sohalarni va tarmoqlarni rivojlantirish orqali iqtisodiyot boshqariladiki, bunda byudjet xarajatlarini boshqarishda minimal xarajat bilan maksimal natijalarga erishish muhim o'rin tutadi. Mamlakatimiz byudjet xarajatlari tarkibida eng katta qismi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab quvvatlashga sarflanayotganligi hech kimga sir emas. Shunday ekan, ushbu sohaga sarflanayotgan mablag'lardan qanchalik samarali foydalanilayotganligi ustidan doimiy nazorat bo'lishi zarur. Afsuski, bu borada hali hamon kamchiliklarimiz mavjud ekanligini yuqoridagi tahlillar natijasida ko'rdik.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ham korxonalarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlanyotganligi, Davlat investitsiya dasturidaga muvofiq byudjet mablag'lari hisobidan investitsiyalar yo'naltirilayotganligi, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaliklarida byudjet mablag'lariga ehtiyojning mavjudligi davlat

byudjetining iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishdagi rolini mustahkamlashdan dalolat beradi.

Byudjet sohasida yana bir muammo mavjudki, u ham bo'lsa byudjetni rejalashtirish bilan bog'liq muammodir. Ushbu muammoni hal etishda albatta 2014 yildan amaliyotga tatbiq etilgan Byudjet Kodeksi aniqlik kiritdi. Shuningdek, xorij tajribasidan foydalanilgan holda byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishga o'tish yaxshi natija beradi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

1.1 O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. -40 b.

1.2 O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: “Adolat”, 2008 y. -692 B

1.3 O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son.

1.4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi “Davlat budjetining G'azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida”gi 594-sonli qarori.

1.5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1257 sonli Qarori.

1.6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdaagi “O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 1449-sonli qarori.

1.7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdaagi “O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 1675-sonli qarori.

1.8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi “Davlat xaridlari tizimini maqbullashtirish va ularga kichik biznes subyektlarini jalb etishni kengaytirish to'g'risida”gi 1475-son farmoni.

1.9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdaagi “O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 1887-sonli qarori.

1.10 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 2099-sonli qarori.

1.11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 2270-sonli qarori

1.12 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar
prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 2455-sonli qarori

1.13 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 26-
martda “Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini joriy qilish va
tayyorlash choralari to'g'risida”gi Qarori

1.14 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining «O'zbekiston
Respublikasining 2005 yilgi Davlat budjetining daromadlar va xarajatlar
parametrlarini taqsimlash, rejalashtirish va ijrosini ta'minlashdagi moliya
organlari va nazorat-taftish boshqarmalarining ustuvor vazifalari to'g'risida»gi
2005 yil 3 yanvardagi 1-son buyrug'i. 8-bandi

1.15 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 20 avgustda
“Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomani tasdiqlash haqida” 65-son
Buyrug'iga ilova “Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma”, 02.2015 y.
2146-4-son bilan o'zgartirish kiritilgan

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

2.1 Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish
yo'lida.-T.: «O'zbekiston», 1995.

2.2 Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada
chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy
yo'nalishlari. Xalq so'zi. 2002 yil 30 avgust

2.3 Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. - T.: O'zbekiston, 2005. -7-b.

2.4 Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. -B. 48.

2.5 Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008. - B. 64.

2.6 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008. -B. 176.

2.7 Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. "O'zbekiston" NMIU, 2009.

2.8 Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari G` - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56.

2.9 Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2010. -80 b.

2.10 Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir – T.: O'zbekiston. 2011. –360 b.

2.11 Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. — T.: O'zbekiston, 2011. —486 b.

2.12 Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarmi yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi.— T.: O'zbekiston, 2011. -566 b.

2.13 Karimov. I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish T.: "O'zbekiston", 2013-y. 64-

2.14 Karimov I.A.. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – Toshkent, 2014. – 64 b.

2.15 Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: “O'zbekiston”, 2015. 71 b.

2.16 Karimov I.A.. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. 2016 yil yanvar (<http://www.uzreport.uz>)

3. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar, monografiyalar

3.1 Jo'raev A. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. -Toshkent: “Fan” nashriyoti 2004 yil.

3.2 Srojiddinova Z.X. O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi: Darslik., – Toshkent, 2010. – 500 b.

3.3 Vahobov. A.V, Malikov. T.S: Moliya. Darslik. T: “Noshir” Toshkent 2011-y. -711 b.

3.4 Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati. Darslik – T.: Akadem nashr, 2011. – 472 b.

3.5 Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005. -312 b

3.6 Malikov T., Haydarov N., “Budjet daromadlari va xarajatlari” O'quv qo'llanma, Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007 y, - 245 b.

3.7 Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash.O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiyalar, 2007. -396 b.

3.8 Malikov T., Haydarov N., “Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni” O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y, - 84 b.

3.9 Vahobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2008. - 316 b.

3.10 Vahobov A., Jo‘raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T.: Sharq, 2009. 236-b.

3.11 Malikov T. Haydarov N. “Moliya: umumdavlat moliyasi” O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 y, - 556 b.

3.12 Vahobov D., Rajabov Sh. Moliya. O‘quv qo‘llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009-y. -198 b.

3.13 Azizova I.A. Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish: o‘quv qo‘llanma. 2010. T.,infoCOM.uz, -152 b.

3.14 Burxanov U. Davlat xaridi. O‘quv qo‘llanma–T.: infoCOM.UZ MChJ, 2010. - 160 b.

3.15 Qosimova G.A. G‘aznachilik: o‘quv qo‘llanma: o‘quv qo‘llanma.- T.:Iqtisod-Moliya,2013-y. -448 b.

3.16 Finansi. G`Pod red. L.A. Drobozinoy –M.: YuNITI, 2010. -350 s.

4. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar

4.1 Agzamov A.T., Soliq tizimidagi islohotlar – makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim fiskal omili sifatida.G`G` “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” . 2015. № 2

4.2 Ahmadjonov Sh., Allakuliev A. O‘zbekistonda natijaviylikka budjetlashtirish masalalari va xorij tajribasi. G`G` “Moliya”. 2012. –№3. –5-11 b

4.3 Eshnazarov T.SH. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni rivojlantirish omillari. G`G` “Iqtisod va Moliya”. 2012.-№.12.-B.51-56.

4.4 Eshnazarov T. -O'zbekistonda moliyaviy sektorning rolini oshirish va unda ilg'or xorij tajribasidan foydalanish. G`G` "Iqtisod va Moliya". 2015

4.5 Temirov M.X. Davlat moliyasi: Yangi texnologiyalar va ularni takomillashtirish. G`G` "Iqtisod va Moliya". 2013.-№.6.-B.19-22.

4.6 Mamadjonov I, Haydarov M, Ergashev A. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining qabul qilinishi va qonunchilikning takomillashuvi. G`G` "Iqtisod va Moliya". 2014.-№.1.-B.2-11.

4.7 Usmonov Q.A, Byudjet daromadlarini rejalashtirish jarayoni, usullari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari. G`G` "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2014. № 4

4.8 Xaydarov M.T. Natijadorlikka yo'naltirilganlik-O'zbekistonda budget islohotlarining yangi bosqichi.G`G` "Iqtisod va moliya". 2014.-№.3.-B. 2-8

5. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar

5.1 O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010-14 yillar.

5.2 O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2010 – 2014 yillar.

5.3 "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 2014-2015 yillardagi sonlari

5.4 "Moliya" ilmiy jurnali. 2010-2014 yillardagi sonlari

5.5 "Bozor, pul va kredit". 2010-2014 yillardagi sonlari

6. Internet saytlari

<http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti

<http://www.soliq.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti

<http://www.lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)

<http://www.press-service.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti

<http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti)

<http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Rasmiy sayti)